

ARABCHA O‘ZLASHMALARNING GENETIK ASOSIGA KO‘RA UYADOSHLIK MUNOSABATI VA SEMANTIK TAVSIFI MASALALARI

Rahmonova Zamira

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada ikki undoshli arabcha o‘zlashma so‘zlarga misollar berilgan. Maqola yozishda tavsifiy metoddan foydalanilgan. Namunalardan xulosa qilib, arab tilidan kirib kelgan so‘zlar uslubiy xususiyatlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zak, uslubiy betaraf, asosdosh, madaniyat, sema, atama

Tilning milliy tabiatini saqlab qolish masalasi doimiy ravishda tilshunoslarning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelyapti. Uning milliy ruhi, tabiati, tarovatini ko‘rsatuvchi hodisalar markazida, avvalo, leksik sath muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, tilshunoslar muayyan tilning xususiyatlarini nazariy jihatdan taftish etar ekan, tildagi so‘zlarning hajmi, iste’mol ko‘lami, semantik taraqqiyoti, o‘z yoki o‘zlashma qatlamga mansubligi, tilda muntazam so‘zlashuvchilar soni kabi masalalarga alohida e’tibor qaratishadi. Negaki, tilning tabiatini o‘zgarish mezonlari mana shu masalalar atrofida yuz beradi.

O‘zbek tili leksikasidagi o‘zlashma so‘zlar manbasi ko‘plab tillarga aloqador bo‘lib, leksikani boyitishga xizmat qilish miqdori jihatidan farqli nisbatlarga ega yoki ayrimlari u yoki bu darajada farqlanadi. Aniqroq aytganda, sanoqli tillarning so‘zlarigina o‘zbek tili lug‘at boyligida salmoqli ahamiyatga ega. Ular fors, arab, rus, ingliz va hind-evropa oilasiga kiruvchi ayrim til so‘zlaridir. O‘zlashma qatlam orasida arabcha so‘zlar boshqalariga qaraganda shakliy jihatdan farqli bo‘lib, o‘ziga xos dasturiy tuzilishga ega deyish mumkin.

O‘rta asrlarda o‘lkamizda arab tili faqat islom dini ta’siridagina yoyilgani yo‘q. Arab tili, o‘z navbatida, rasmiy-idoraviy til, fan tili va ijodkorlar uchun badiiy adabiyot tili rolini ham bajargan. Bularning barchasi bu til so‘zlarini hozirgi o‘zbek tilining bir qismi sifatida qabul qilinishi uchun poydevor vazifasini bajargan.

O‘zbek tiliga arab tili bilan bevosita to‘qnashgan til sifatida qaralib, o‘zbek-arab ikki tilliligi kontaktli hodisa hisoblanishi ta’kidlanadi. Bu jihatdan o‘zbek-arab tillarining o‘zaro aloqasi va ta’siri boshqa turkiy tillardagi mana shunday ta’sirdan farqlanadi.

Bir mazmuniy uyaga mansub so‘z uyadosh deyiladi. Masalan, daraxt so‘zi o‘z mazmuni ichiga olma, olcha, terak, tol, archa, chinor, nok, tut, qayin, qayrag‘och kabi so‘zni oladi. O‘z ichiga oluvchi so‘z uya so‘z va uyaga kiruvchi so‘z uyadosh so‘z

deyiladi. Qo‘y uya so‘zi o‘z ichiga qo‘zi, sovliq, qo‘chqor, shishak, to‘qli so‘zini olsa, qoramol so‘zi sigir, novvos, ho‘kiz, buqa, g‘unajin so‘zini oladi.

Bir uyaga kiruvchi uyadosh so‘z ichki guruhga bo‘linishi mumkin. Masalan daraxt uyasi o‘z ichida mevali daraxt va mevasiz daraxt uyasiga bo‘linadi. Bu uyachada daraxt nomi mevali va mevasizga bo‘lingan holda yashaydi. Masalan, ot uyasi quyidagi 4 ta uyachaga bo‘linadi:

a) jins uyasi: *ayg‘ir, baytal*;

b) zot uyasi: *arabi, bedov, qozoqi, muguli, axaltaka*;

v) rang-tusi uyasi: *saman, to‘riq, chovkar, qorabayir, qashqa, jiyron*;

g) vazifa uyasi: *salt, aravakash, yukchi, uloqchi, poygachi*;

Uya yoki uyadosh so‘z o‘rnida so‘z birikmasi ham bo‘lishi mumkin. Bunga yuqoridagi mevali daraxt va mevasiz daraxt birikmasi misol bo‘ladi. U daraxtning mevali turiga nisbatan uya birikma, daraxt uyasiga nisbatan uyadosh birikmadir.

Gullar so‘zining uyadoshlari: *gultojixo‘roz, gulxayri, gulhamishabahor, itog‘iz, sapsargul, karnaygul, lola, qashqargul, rayhon, ra‘nogul, jambil, nilufar, sadarayhon*.

Bosh kiyimlar uyadoshlari: *ro‘mol, salla, qalpoq, do‘ppi*.

Oyoq kiyimlar uyadoshlari: *botinka, etik, kalish, kavush, mahsi, tufli, shippak*.

Yashash joylari uyadoshlari: *hovli, hujra, kappa, kulba, koshona, xona, uy*.

Turar joylar so‘zining uyadoshlari: *daha, kent, mahalla, qishloq, tuman, viloyat, shahar*.

Bilmoq so‘zining uyadoshlari: *anglamoq, fahmlamoq, tushunmoq, tagiga yetmoq, uqmoq, o‘rganmoq*.

Qovun so‘zining uyadoshlari: *amiri, bo‘rikalla, handalak, ko‘kcha, kampirchopon, oqurug‘, qizilurug‘, shakarpalak, sherozi*.

Bugungi kunda taraqqiyot har bir narsa – ko‘zga ko‘rinadigan yoki his etiladigan unsur bo‘lsin, uni algoritmik tilda dasturlab o‘rganishni talab etyapti. Ana shu dasturlash haqida tasavvur qilinganda arab tilining nechog‘lik “ajoyibot”lari, rang-barangligi insonni ajablantiradi. Ayniqsa, uning ishtiyoqiy (fleksion) xususiyati: so‘z asosdoshlarida “undosh”larning o‘zgarimasligi, unilarning o‘zgarishi paradigmalari, qoliplari Yaratganning “al-Musavvir” sifatli zotini namoyon qilib turadi. Mazkur lug‘at o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashma so‘zlarni asosdoshlari asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, undan o‘rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchisi, oliy o‘quv yurti talabasi va ona tili o‘qituvchilari foydalanishi mumkin.

Shunga ko‘ra o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashma so‘zlarni genetik asoslariga ko‘ra tasniflab o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. Masalan, lug‘at boyligimizdagi arabcha *h~k~m* undoshli genetik asosdosh so‘zlarning barchasi (mahkam, mahkama, mahkum, mustahkam, muhokama, hakam, hakim va hokazolar) muayyan paradigmatic qator sifatida jamlanadi. Ularning etimologik va bugungi genetik ma‘nolari talqin etiladi. Izohli lug‘atlardagi bosh va ko‘chma ma‘nolari tahlilga tortiladi. Polisemantik hodisa

orqali shakllangan leksema sememalarining qaysi sema asosida birlashib yoki bog‘lanib turgani komponent tahlil usul asosida aniqlanadi. Bu jarayonda integral va differensial semalarga yetarlicha sharh berilsa, potensial semalarga esa yondosh hodisa imkoniyati sifatida qaraladi.

Asosdosh o‘zlashma so‘zlarning xususiyati shundaki, ularda ishtirok etayotgan unli va undoshlar miqdori ham, joylashish o‘rni ham barqaror bo‘ladi. Faqat o‘zgaruvchan undoshlarga so‘zning ma’nosini farqlashga xizmat qilib turadi. Arabcha so‘zlarning, asosan, uch undoshlilik hisobga olinsa, qolip aynan ana shu bir xillikka asoslanadi. Odatda (iki yoki) uch undoshdan iborat, tarkibi aynan bir xil undoshli, turli qoliplarda shunday muntazamlikka ega so‘zlar *arabcha genetik asosli o‘zlashma so‘zlar* hisoblanadi. Genetik asosli arabcha o‘zlashma so‘zlarni quyidagi jadval orqali aniqroq kuzatish mumkin: Masalan, kutub, “kitob” ning ko‘plik shakli, ya’ni ko‘plik shakli o‘zagi o‘zgargan holda bo‘ladi.

Uch undoshli asosdosh so‘zlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

كتب	k-t-b	<i>maktab, kitob, kotib, kitobat, maktub, kutubxona</i>
خبر	x-b-r	<i>xabar, axborot, muxbir</i>
سلم	s-l-m	<i>muslim, Salim, musulmon</i>

Arab tilida asosdosh deyilganda asosi bir bo‘lgan so‘zlarga aytiladi. Arab tilida asosdosh so‘zlarning ma’nosi umumiy bitta, bir-biriga yaqin bo‘ladi. Jadvaldagi so‘zlarni izohlaydigan bo‘lsak, asosdosh so‘zlar orasida ma’no yaqinligi bor.

МАКТАБ [a. مکتب o‘qish joyi; yozuv stoli; bo‘lim, idora] O‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o‘rgatib, uni ma’lumotli qiluvchi ta’lim-tarbiya muassasasi. Boshlang‘ich maktab. Internat maktab. O‘rta maktab. Maktabga kirmoq.

КИТОБ [a. کتوب yozilgan, muqovalangan asar] 1 Ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar. Kitob magazini. Kitob savdosi. Kitob nashr etmoq. She’riy kitob.

КИТОБА [a. کتابة yozuv; kotiblik; yozuvli lavha] esk. Qabr toshi, katta darvoza va bino peshtoqiga bitilgan yoki o‘yilgan yirik yozuv. Qani u xarobazor Barq urar yangi jahon, Daryolar, ekinzorlar – fusunkor kitobalar. Mirtemir.

КИТОБАТ [a. کتابت – yozuv, yozish; yozuvli lavha] esk. Yozish, ko‘chirib yozish, yozuv. Keksa xattot Masharif tarro bilan marosimni kitobat qilib o‘tirgan edi. S. Siyoyev, Yorug‘lik.

KOTIB [a. كاتب – (xat) yozuvchi, (kitob) ko‘chiruvchi] 1 tar. Ro‘yxat tuzish, qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan shaxs; mirza

KUTUBXONA [a. **كاتب** – «kitob» s. ning ko‘pl. + xona] 1 Kitob, jurnal va sh. k. ni to‘plash, saqlash va ularni tashviqot qilish, o‘quvchilarga foydalanish uchun berish bilan shug‘ullanuvchi muassasa. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining kutubxonasi

MAKTUB [a. **مكتوب** • – yozilgan; xat, noma] 1 kt. Kimsaga, biror kishiga yozib yuborilgan xat, noma. Maktub yubormoq. Maktub yozmoq. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdi-da, qo‘lidagi maktubning orqa-o‘ngini tekshirib qaradi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

Kitob, maktab, kutubxona, kitobat so‘zlarining barchasi yozuv va ilmga oid so‘zlar hisoblanadi.

XABAR [a. **خبر** – darak; axborot, ma‘lumot; ovoza; kesim (tlsh.)] 1 Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi axborot, darak, bildirish.

AXBOR [a. **اخبار** – “xabar”ning ko‘pligi] kam qo‘ll. Xabar; xabarlar; ma‘lumot

MUXBIR [a. **مخبر** – xabarchi, xabar beruvchi; ayg‘oqchi] 1 Tahririyat tarkibida jurnalist sifatida xizmat qiluvchi xodim. 2 Bevosita tahririyatda ishlamaydigan, ammo ommaviy axborot vositalarida muntazam ijodiy hamkorlik qiluvchi shaxs. Majid bilan Rayhonov olmoslik muxbirning ilgarigi yozgan xabarlarini originalini ko‘zdan kechirmoqchi bo‘lishdi. M. Jo‘ra, Noshirnoma.

MUSLIM [a. **مسلم** – islomni qabul qilgan, musulmon] 1 kam qo‘ll. Musulmon dinidagi kishi; musulmon. ..islom tug‘i ostiga Turkistondagi jamiki musulmlarni to‘plagaymiz.

MUSULMON [a. **مسلم**] 1 Islom dinidagi kishi. [Qozi:] Sen bir kambag‘al musulmonsan. O‘z joningga jabr qilma.. deymiz. Hamza, Boy ila xizmatchi.

SALIM [a. **سليم** – sog‘lom, butun, shikastlanmagan; haqiqiy, to‘g‘ri] 1 kt. Sog‘lom odam; sog‘-salomat, to‘rt muchasi but kishi. Aqli (yoki fikri) salim 1) to‘liq, tiniq aql; 2) aqli raso, miyasi butun odam. Bu so‘zlarda esa ruhida va aqlida sog‘lomlik, iymonlilik umumiy ma‘no sifatida olingan. O‘zbek tilida *musulmon* va *muslim* so‘zlari dublet ya‘ni variantdosh so‘zlar hisoblanadi.

Arabcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishidagi yana boshqa bir manba bu arab kitobchilik san‘atining butun borlig‘i bilan turkiy xalqlar, birinchi navbatda, o‘zbek xalqi madaniyatiga kuchli ta‘sir etishi bilan bog‘liqdir. Biz bilamizki, arab kitobchiligi islom dini yoyilishining dastlabki bosqichlarida muqaddas Qur‘oni Karimning ko‘chirib tarqalishiga bo‘lgan ehtiyoj natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bunday deyishimiz uchun ma‘lum bir asoslar bor. Chunki ba‘zi manbalarda yozishlaricha, islom dinining paydo bo‘lishiga qadar arablar o‘zlarining muayyan bir yozuvlariga ega bo‘lmagan. To‘g‘ri, III-IV asrlarga qadar ularda oromiy yozuvining arabcha variant qo‘llanishda bo‘lgan, lekin bu yozuv turi u qadar yoyilmaganligi sababli arab xalqi tarixi va hayotiga oid rivoyat hamda ertaklar, asosan, avloddan avlodga og‘zaki rusumda yetib kelgan. Islom dinining paydo bo‘lishi va uning natijasida arab xalfasining tuzlishi bilan arab xalqining madaniy, siyosiy, iqtisodiy, hayotida keskin o‘zgarishlar

sodir bo'ldi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qadimda o'zbeklar yozuv qurollaridan hisoblangan siyohdonni bitigu so'zi orqali ifodalashgan. Bitigu so'zining etimologiyasi ham bitig singari asli turkiy "bitmoq" fe'liga borib taqalishi ma'lum. Keyinchalik bitigu terminini o'rnini arabcha davot so'zi to'liq egallaydi. Ma'lum vaqtga qadar bitigu va davot terminlari parallel tarzda qo'llangan. Keyinchalik arab tili ta'sirida davot turki bitigu so'zini leksikadan siqib chiqargan. Shuningdek bitigu o'rnida arabcha yana bir termin – mihbara ham davot terminiga sinonim tarzida muomalaga kirib kelgan. Shuningdek, ayrim arabcha o'zlashmalar dastlabki o'zlashgan vaqtlarda tilimizda faol qo'llanishda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kun nuqtayi nazaridan erishishi, ya'ni ular anglatgan tushunchalarning texnik taraqqiyot tufayli yo'q bo'lib ketishi yoki ularning o'rnini yangi terminlar egallashi natijasida ular arxaik termin sifatida iste'moldan chiqib ketgan.

2	شعر	sh~r	<i>Shoir, shoira, she'r, she'riy, she'riyat, ash'or, mushoira</i>
3	ذكر	z~k~r	<i>Zikr, muzakkar, tazkira</i>

SHOIR [a. شاعر – she'r to'quvchi, yozuvchi] 1 She'riy asarlar yozadigan kishi. Ulug' shoir. Demokrat shoir. Xalq shoiri. Bizga adiblar, shoirlar, haqiqiy kurashchilar lozim. Oybek, Nur qidirib.

2 Baxshi yoki oqinlar ismiga hurmat yuzasidan qo'shib aytiladigan so'z. Fozil shoir. Islom shoir Nazar o'g'li.

3 s. t. Gapdon, so'zamol, hozirjavob odam haqida. Bu yigit juda shoir ekan.

SHOIRA [a. شاعره] She'riy asarlar yozadigan ayol. O'zbek shoiralari.

2 s. t. Gapdon, so'zamol, hozirjavob qiz yoki ayol. Majlisning shoiralari, o'yinchilari, childirmachi va dutorchilari – barchasi ham hozir bo'lib, Kumushbibigina hammomdan qaytmagan edi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

SHE'R [a. شهر -nazm, poeziya] Ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar. Aruz vaznidagi she'r. Barmoq vaznidagi she'r. Lirik she'r. Erkin she'r. G'afur G'ulom she'rlari. n Xat konvertga tushayotganda, Normat uning oxiriga yana ikki misra she'r yozib qo'ydi. I. Rahim, Chin muhabbat.

SHE'RIY [a. شهرى – nazmiy; she'r yo'li bilan, she'rga oid] 1 She'rga oid, she'rga xos. Boburda bunchalik she'riy iste'dod bor deb o'ylamagan Binoiy bir lahza hayratlanib turdi-yu.. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. 2 She'r bilan yozilgan.

SHE'RİYAT [a. شهریت -nazm, poeziya] 1 She'riy asarlar majmui; poeziya; she'r yozish san'ati. Navoiy yashagan davr she'riyati. Kuylandi el tilagi baxish sozida, She'riyatning eng dilkash, eng tannozi. Uyg'un. Hamza bo'ldi menga har qachon She'riyatda yaqin ustozim. X. Saloh.

ASH'OR [a. اشعار – she'rlar] esk. kt. She'r; she'rlar, baytlar. [Navoiy] Forsiy ash'orda « Foni » , turkiy ash'orda «Navoiy» taxallusini qo'llagan. Oybek, Navoiy.

MUSHOIRA [a. مشاعره – she'riy ijoddagi tortishuv; she'r aytishish] 1 She'riyatning bir janri: ikki yoki undan ortiq shoirning bir mavzuda bir-birining fikr va tuyg'ularini rivojlantiradigan she'r aytishish musobaqasi. Hirotning olim ea shoirlaridan ma'lum bir guruhi bu yerga to'planar, muhim asarlar o'qilar, qizg'in suhbatlar, mushoiralar bo'lib turardi. Oybek, Navoiy.

2 Umuman, she'r aytishish, shu boradagi tortishuv, musobaqa. Studentlar bilan o'tkazgan uchrashuvimiz mushoiraga aylanib ketdi. N. Safarov, Olovli izlar

ZIKR [a. ذكر – eslash, yodlash; xotira] 1: zikr etmoq (yoki qilmoq) kt. Esلامoq, yodga olmoq, qayd qilmoq. Navoiy yuqorida nomlari zikr etib o'tilgan shoirlar bilan yaqindan tanish bo'lgan. «O'TA». Ayniqsa, quyida zikr qiladigan holimiz bu ikki opa-singilning xarakterdagi farqlarini ochib ko'rsatish uchun yetadir. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

2 din. Tasavvufda musulmonlarning xudoni yodga olish bilan bog'liq marosimi va shu marosimda aytiladigan musiqiy-she'riy turkum. Biz zikrdan guzarga chiqib, har yer-har yerda bo'layotgan bazmlarni tamosho qildik. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari.

MUZAKKAR [a. مذكر – erkak jinsli] esk. tlsh. Arab tilida er jinsiga oid so'z yoki so'z shakli, mas., muallim, murabbiy; zid. muannas 2.

TAZKIRA [a. تذكرة – bildirish, xabardor qilish; hayotnoma; xotira, eslash; xotiranoma] 1 ad. Yozuvchi va shoirlar to'g'risida qisqacha ma'lumot berilib, asarlaridan namunalar keltirilgan, umuman, tarix, tasavvuf, san'at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhida yozilgan kitob, antologiya. Navoiy tazkirasi – «Majolis».. yangi tipdagi tazkira – antologiya edi. «O'TA».

2 ayn. memuar.

1	نثر	n~s~r	<i>Nasr, nasriy, nosir</i>
2	قدم	q~d~m	<i>Muqaddam, muqaddima, qadam, qadim</i>

NASRI I [a. نثر – sohib, to'kib tashlash; proza] ad. Prozaik asar; vazn va qofiyaga ega bo'lmagan yozma nutq mahsuli; zid. nazm. Nazmga sig'dirolmaganini nasrda beribdi. S. Anorboyev, Oqsoy.

NASRI II Shashmaqom tarkibidagi maqomlarning ashula bo'limi.

NASRIY [a. نثري – nasr bilan yozilgan] Proza janriga mansub, prozada yozilgan, prozaik. Sizning nasriy asarlaringiz, hikoyalaringizda fikr yorqin, til o'tkir ea go'zal satirik chiziqqlar bordir. Oybek, Nur qidirib.

NOSIR [a. نطر – yordam, ko'mak; g'alaba, yutuq]

QADIM [a. قديم – o'tgan, ilgarigi, ko'hna, eski] 1 ot Uzoq o'tmish, qadimgi zamon, uzoq o'tmish davr. Qadimdan qolgan odat. Chorvoq dalasi qadimda Madamin bilan Olaxo'jaboyga qarashli edi. P. Tursun, O'qituvchi.

MUQADDAM [a. مَقْدَم – birinchi o‘ringa qo‘yilgan; oldindan to‘lanadigan; old qism; yo‘lboshchi] T (b. k. va ch. k. bilan) ko‘m. Payt munosabatini ifodalaydi; burun, ilgari, oldin. Bundan uch yil muqaddam. n Yarim soatcha muqaddam bo‘m-bo‘sh turgan katta zal odamlar bilan liq to‘la. R. Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.

MUQADDIMA [a. مَقْدِمَة – old qism; kirish joyi, qismi; nutq, asarning boshlanmasi] 1 Adabiy-badiiy, ilmiy, musiqiy asarlar va b. ning boshlanish qismi; kirish, debocha. Kitobning muqaddimasi. Muqaddima bermoq. Bu xil muqoyasaga.. Istambulda nashr etilgan Fuzuliy devoniga yozilgan muqaddimani misol qilib ko‘rsatish mumkin. «O‘TA».

QADAM [a. قَدَم – oyoqkafti, tovon; oyoq, odim] 1 Yurish jarayonidagi har bir oyoq tashlash, oyoq bosish; odim. Ildam qadam. Shaxdam qadam. Ochil «bu gaplarning menga aloqasi yo‘q», deganday qilib, qadamini tezlashtirdi. P. Qodirov, Uch ildiz.

1	كبير	k~b~r	<i>Akbar, akobir, kibor, kabir, takabbur, takbir</i>
2	درس	d~r~s	<i>Dars, madrasa, mudarris,</i>
3	قبر	q~b~r	<i>Qabr, maqbara</i>

AKBAR [a. أكبر – eng katta] 1 esk. kt. Eng ulug‘. ulkan, katta.

Jihodi akbar 1) din uchun qilingan muqaddas urush; g‘azovat; 2) ko‘chma katta jang, katta urush. Vaziri akbar Bosh vazir, katta vazir. Isfandiyor taxtga o‘tirgan kechasi Odilbikaga qancha-qancha va'dalar qildi: otasini vaziri akbar qilish, boshqa uylanmaslik va hokazo. J. Sharipov, Xorazm.

AKOBIR [a. اكابر – eng kattalar] 1 esk. kt. Yuqori martabali kishi, katta odam. Kimxob, zarbof, shoyi to‘n kiygan mutakabbir akobirlar, a‘yonlar.. birin-ketin saroy bog‘iga kirib kela boshladilar. M. Osim, Karvon yo‘llarida.

KABIR [a. كبير – katta, buyuk] 1 esk. kt. Katta, ulug‘. Mushtlaring og‘riydi cho‘ntaklaringda: sen hamon kichiksan, bu olam – kabir. Sh. Rahmon. Yolg‘on gapirmoqlik – gunohi kabir! M. Ismoilij, Farg‘ona t. o.

Sahroyi Kabir geogr. Shimoliy Afrikadagi quruq iqlimli juda katta yer, dashti biyobon, bepoyon sahro.

2 Yetimlik yoshidan o‘tgan, balog‘atga yetgan, ulg‘aygan. Sag‘iri bo‘lsin ul xohi kabiri, chuqur fikri hamisha dastgiri. Habibiy.

3 Kabir (erkaklar ismi).

KIBOR [a. كبار – «kabir» s. ko‘pl. : kattalar, ulug‘ kishilar] esk. kt. 1 Jamiyatning oliy tabaqasiga oid kishi; oqsuyak, aslzoda. Kiborlar jamiyati. Ulug‘ hokim darvoza oldida egardan tushib, otni posbonga berdi, shu payt yaltiroq to‘nli bir kibor ta‘zim qilib, uni ichkariga boshladi. M. Osim, Ibn Sino qissasi.

2 Ulug‘vorlik, kiborga xos o‘zini tutish. Takson vaziyatini o‘zgartirmay, coxma kibor va mensimaslik bilan xonaga kirdi-yu.. kreslolardan biriga o‘tirib, oyog‘ini chalishtirdi. S. Karomatov, So‘nggi barxan.

TAKABBUR [a. تَكَبُّر – o‘zini ulug‘ tutish; mag‘rurlik, manmanlik] O‘zini katta oluvchi, kekkaygan, gerdaygan; mutakabbir, dimog‘dor. Takabbur odam. Juda takabbursan-da, Zumrad. Otdan tushsang ham, egar dan tushmaysan. S. Siyoyev, Otlıq ayol.

TAKBIR [a. تَكْبِير – kengaytirish, kuchaytirish; ulug‘lash, maqtash; xudoni ulug‘lab, «Allohu akbar» iborasini aytish] din. Allohni ulug‘lash bilan bog‘liq ibora («Allohu akbar» – Alloh buyukdir)ni talaffuz etish, tilga olish. Xatib domla.. oq bo‘yra ustidagi tobut yoniga boradi va sallasining peshini tushirib, takbir uchun qo‘l ko‘taradi. A. Qodiriy, Obid ketmon.

DARS [a. دَرَس – saboq; ma‘ruza] 1 Ta‘lim muassasalarida ilm, ma‘lumot berish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari, saboq. Dars olmoq. Dars bermoq. Dars qilmoq (tayyorlamoq). Nasiba dapcda ekan, aytdim, hozir, dars tamom bo‘lishi bilan keladi. A. Qahhor, Saodatning qissasi.

MADRASA [a. مَدْرَسَة – maktab, o‘quv yurti; fandagi yo‘nalish, maktab] 1 tar. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, chor Rossiyasining ko‘pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida diniy oliy o‘quv yurti. Nodira Anvarni o‘qitmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

2 O‘zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi diniy maktab.

MUDARRIS [a. مُدَرِّس – dars beruvchi; o‘qituvchi, muallim] Madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o‘qituvchisi. Katta amakisi Buxoroning «Xo‘ja Porso» madrasasining mudarrisi bo‘lib, Abdurahmon shu kishining tarbiyasiga kelgan edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

MAQBARA [a. مَقْبَرَة – qabriston, go‘riston] Qabr ustiga qurilgan me‘moriy inshoot yoki tosh tobut; dahma, sag‘ana. Ismoil Somoniy maqbarasi. Shohi Zinda maqbarasi. n Kushbegi o‘tiradigan joyning sharq tomonida bir maqbara bo‘lib, unda kechalar chiroq yoqiladi. S. Ayniy, Doxunda.

QABR [a. قَبْر – go‘r] Odam o‘ligi (murdasi) ko‘miladigan yoki ko‘milgan maxsus joy; go‘r. Chinorli mozorda xo‘p mehribon, xo‘p dilkash odam – Boboqul otaning qabri bor. S. Anorboyev, Oqsoy.

1	فكر	f~k~r	Fikr, tafakkur, mafkura, mutakkir
2	مثل	m~s~l	Tamsil, masal, misol
3	نطق	n~t~q	Nutq, notiq, mantiq

FIKR [a. فِكْر – tafakkur, g‘oya; aql, o‘ylash, o‘y, xayol, mulohaza] 1 Biror narsa, hodisa yoki kimsa haqida o‘y, xayol. Fikri ravshanning so‘zi ravshan. Maqol.

TAFAKKUR [a. تفكر – fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash] 1 Ob'ektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash. Til tafakkur bilan bevosita bog‘liqdir. Insoniyat yuksak xayolot va tafakkur kuchi bilan yaratgan barcha ma'naviy-badiiy boyliklar orasida og‘zaki ijod namunalari alohida ajralib turadi. «Fan va turmush».

TAMSIL [a. تمثل – tomosha, o‘yin; o‘xshab ketish; o‘rnak, namuna olish; misol qilib keltirish] ad. Mumtoz adabiyotda: baytning birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at.

MASAL [a. مثل – namuna, andoza; o‘xshashlik; ramzli hikoya] 1 Kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya. Krilov masallari. O‘zbek xalq masallari. To‘plamda shoirning eng sara masallari jamlangan. Gazetadan.

NUTQ [a. نطق – so‘zlash, nutq; gapirish qobiliyati] 1 Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Nutqi yomon. Bolaning nutqini o‘stirmoq. Ochilning nutqi.. yaxshi edi. P. Qodirov, Uch ildiz.

NOTIQ [a. ناطق – so‘zlovchi, gapiruvchi; fikrlovchi; diktors] Nutq so‘zlovchi; gapga chechan, gapga usta, so‘zamol. To‘ti xoladay to‘qqiz o‘g‘ilning onasi, majlisda notiq, terimda devkor ayolni jondan sevmalik mumkinmi? Oybek, O. v. shabadalar.

MANTIQ [a. مبطق – nutq, til; so‘zlash; logika] 1 To‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Nasriddin Tusiy.. jabr, tib va mantiq nazariyasi bilimlarining boshqa sohalari bo‘yicha ham ko‘pgina kitoblar yozgan. Mirmuhsin, Me'mor.

1	رز ق	r~z~q	Rizq, razzoq
2	شفق	sh~f~q	Shafiq, shafqat, mushfiq
3	جبر	j~b~r	jabr, jobir

RIZQ [a. رزق – yashash vositasi, ta'minot; ulush, nasiba] 1 Hayot uchun zarur ozuq, ozuqa, qut, nasiba, ovqat. Qunt bilan o‘rgan hunar, Hunardan rizqing unar.

RAZZOQ [a. رزاق ~ yashash uchun mablag‘, boylik beruvchi] 1 din. Rizq-ro‘z beruvchi (Ollohning sifatlaridan biri).

SHAFIQ [a. شفيق – rahmdil, shafqatli] 1 esk. kt. Birovga mehribonlik qiladigan, shafqatli, muruvvatli. G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish. Alisher Navoiy.

SHAFQAT [a. شفقت – rahmdillik, achinish, hamdardlik; iltifot] Ayash, rahm histuyg‘usi; shunday his-tuyg‘uli munosabat. Og‘a-inilar o‘zlarining ahilligi, bir-biriga mehri, shafqati bilan hammaning diqqatini jalb etar, havasini keltirar edi. Oybek, Quyosh qoraymas.

MUSHFIQ [a. مشفق – shafqatli, rahmdil, mehribon] kt. Shafqat qiluvchi, shafqatli. Uning siymosida mushfiq onadagi bolajonlikni, jafokashlikni, olijanoblikni ko‘rasiz. E. Oxunova, Mehr chashmasi.

JABR I [a. جبر – zulm] Jismoniy yoki ruhiy azob; zulm, adolatsizlik. Polisiya mahkamasi oldidan o‘tar ekan, har kimni titroq bosar, uning jabrini, dahshatini xalq har kuni, har soat, har minut totib turar edi. Oybek, Tanlangan asarlar.

JOBIR [a. – jabr-zulm o‘tkazuvchi] esk. Jabr qiluvchi. Tarix ko‘p yil tahqir bitar Chingiz kabi jobirga. E. Vohidov, Sharqiy qirg‘oq.

1	ظلم	z~l~m	zulm, zolim, mazlum, zulmat
---	-----	-------	-----------------------------

ZULM [a. ظلم – jabr-sitam; adolatsizlik] 1 Hukmdor va hokimlarning fuqaroga, zolimlarning mazlumlarga ko‘rsatgan jabri; shafqatsizlik, istibdod. Zulm zindondan yomon. Maqol.

ZOLIM [a. ظالم – zulmkor, mustabid] 1 Zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi. Ilonning zahri yomon. Zolimning qahri yomon. Maqol. Faqat xotinlargina zolim podshoni qarg‘ab chinqirishar, yiglashar edi. Oybek, Tanlangan asarlar.

MAZLUM [a. مظلوم – jabrlangan, zulm ko‘rgan] Zulm ostida qolgan, ezilgan. Mazlum xalqlar.

Ma‘lumki, bir umumiy mavzu ostiga birlashuvchi so‘zlar uyadosh so‘zlar hisoblanadi. Tilimizdagi barcha so‘zlar ongimizda ma‘lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so‘zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi.

Arabcha o‘zlashma so‘zlar ham genetik jihatdan uyadoshlik munosabatini hosil qiladi. Ularning muayyan uyaga birlashuvi, asosan, genetik jihatdan yaqinligiga asoslanadi. Arabcha o‘zlashmalarning genetik jihatdan uyadoshlik hosil qilishi, ikki yoki uch undoshli arabcha asosdosh o‘zlashma so‘zlarlarning semantik tahlili jarayonida ko‘zga tashlanadi. Aynan shu hodisa “o‘zbek tilida arabcha o‘zlashma so‘zlarning asosdoshlar lug‘ati”ning tuzilishi, o‘zbek tilida arabcha o‘zlashma so‘zlarning leksikografik tavsifi masalalarini o‘rtaga olib chiqishga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilida arabcha o‘zlashmalarining semantik-struktur xususiyatlari va leksikografik talqini jarayonida arabcha o‘zlashmalarning genetik jihatdan uyadoshlik hosil qilishi; ikki ёки uch undoshli arabcha asosdosh o‘zlashma so‘zlarlarning semantik tahlili; “o‘zbek tilida arabcha o‘zlashma so‘zlarning asosdoshlar lug‘ati”ning tuzilishi hamda o‘zbek tilida arabcha o‘zlashma so‘zlarning leksikografik tavsifi masalalarining dolzarbligini belgilaydi.

Leksikadagi arabcha so‘zlarning boshqalaridan farqli xususiyati ularda barqarorlashgan tuzilishning mavjudligidir. Ayniqsa, bunday o‘zlashmalarning manba til jihatidan ko‘proq uch undoshdan iborat bo‘lishi hisobga olinsa, muayyan qoliplar

muntazamligida arabcha asosdosh o'zlashmalar assotsiatsiyasi paydo bo'ladi: *nur, anvar, tanovar, munavvar*. Bu esa leksikografiyada arabcha genetik asosli o'zlashma so'zlar lug'atini tuzish mumkinligini asoslaydi. Arabcha asosdosh so'zlarning semantik aloqasi muayyan paradigma sifatida kuzatilganda yaqqol seziladi.

Leksikamizdagi arabcha so'zlar o'ziga xos shakliy belgilarga ega bo'lib, ularni osonlik bilan boshqa til leksemalaridan farqlash uchun arab tili haqida ma'lum bir nazariy ma'lumotlarni bilish talab etiladi.

Arabcha so'zlarning o'ziga xos farqlanish belgilari sifatida boshlanishi *ta-, ma-, mu-, muta-, ist-* unsurli so'zlar hamda tugallanishi *-at //-ot, -iy //-viy* shaklli arabcha o'zlashmalar, shuningdek, arabcha siniq ko'plikning ifodalanishi misol keltirish mumkin.

Arab tilidagi ikki asosli so'zlar ham o'zbek tilida alohida ahamiyatga ega. Masalan, *ishq, oshiq, ma'shuqa; maxfiy, xufya; aql, oqil, oqila; uzr, ma'zur; ahl, aholi; ajib, ajoyib, ajab; rozi, rizo* so'zlari o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Ularning hammasi umumiy bir ma'no asosida birlashadi.

ISHQ - [a. عشق – sevgi, muhabbat; oshiqlik, xushtorlik] 1. Boshqa jinsdagi shaxsga berilish, intilish (moyillik) his-sezgisini. Majnunning Layliga ishq.

OSHIQ - [a. يعشق – sevuvchi, sevib qolgan; xushtor; muxlis] 1. Birovni juda sevib, unga shaydo bo'lib qolgan, birovga muhabbat qo'ygan kishi; xushtor. Oshiqi beqaror.

MA'SHUQA [a. عشيقة -Ma'shuq ayol] - [Otabek:] Oy yuzli rafiqam, qunduz qoshli ma'shuqam Kumushxonimga! A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

Bu so'zlar uchun umumiy ma'no oshiqlik, sevib qolish sanaladi. Bugungi kunda ishq so'zi uslubiy betaraf so'z hisoblanadi. Ko'pincha bu so'z badiiy uslubda ishlatiladi. Arablar yurtimizga kirib kelishi ma'daniyatini ham olib kirdi. Ishaq, oshiqlik, ma'shuqa tushunchalari mavjud g'azallar kirib keldi. G'azallarda ishq, oshiqlik so'zlarini ma'no jihatidan talqin qilmoqchi bo'lsak, bir ma'noda oddiy avom ishq, bir ma'noda Allohga ishq tushuniladi.

MAXFIY - [a. مخفی – yashirin, bekitilgan] O'zgaga, begonaga bildirilmaydigan, boshqalardan sir tutiladigan; xufiya, yashirin. Maxfiy xat.

XUFIYA- [a. خفيه – yashirinlik, maxfiylik; sirini boshqalarga aytmaslik] 1. Boshqalarga bildirilmaydigan, sir tutiladigan; yashirin, maxfiy. Ibrohim sulton Qorailon qulog'iga shivirlab, xufiya topshiriqni ma'lum qildi. Mirmuhsin, Me'mor.,

Maxfiy, xufiya so'zlari bugungi kunda faol qo'llaniladi, ular sirlilik semasi asosida birlashgan.

OQIL - [a. عقل - aqlli, farosatli, es-hushli; bama'ni] 1 O'tkir aql sohibi; aqlli, dono. Oqil odam.

OQILA - [a. عقل – «oqil» s. ning muannasi] 1. O'tkir aql sohibasi; aqlli, dono (ayol haqida). Gavharshodbegim ko'p oqila, juda hozirjavob bo'lgan, deb eshitganman. Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar. 2. Oqila (xotin-qizlar ismi).

Bu so'zlar bilan aql so'zi ham asosdosh hisoblanadi. Aql, bilimlilik semasi asosida birlashadi. Arab tilida ikkita jins bor muannas, muzakkar. Muannas jinsni hosil qilish uchun –a qo'shimchasi qo'shilgan va oqila so'zi paydo bo'lgan. Bundan tashqari *fozil-fozila, shoir-shoira, muslim-muslima* so'zlarida ham xuddi shunday. Oqila, oqil so'zlari badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi.

UZR-MA'ZUR - [a. عذر + منذور] Kechirim so'rash va afv etish, kechirish; uzr va ma'zur. UZR-ma'zur aytishmoq. Ayb sizda bo'lsa, bir uzr-ma'zur kechasi qilamiz. A. Qahhor, Sarob.

MA'ZUR - [a. منذور – uzrli; uzr etilgan] Uzrli, kechirsa bo'ladigan. Maktubni isitma orasida yozganingizga tamoman qanoat hosil qildim. Shuning uchun sizni ayblashga haqqim yo'q, siz ma'zursiz.

Bu so'zlardan *uzr* so'zi faol qo'llaniladi. *Ma'zur* so'zi kamunum so'z hisoblanadi. Tilimizda juft so'zlarning qismlarining ishlatilishi va ishlatilmasligiga ko'ra turlari bor: 1. Ikki qismi ham ma'no anglatadigan juft so'zlar: *kecha-kunduz, ota-ona, katta-kichik* 2. Bir qismi ma'no anglatadi, bir qismi ma'no anglatmaydigan juft so'zlar: *kiyim-kechak, rozi-rizo, uzr-manzur* 3. Ikkala qismi ham ma'no anglatmaydigan so'zlar: *adi-badi, ikir-chikir*. Ikkinchi qismi ma'no anglatmaydigan juft so'zlarni etimologik tahlil qilsak, bunda ikki qismi ham ma'no anglatgan, ammo keyinchalik ikkinchi qismining ishlatilishi susaygan, so'zning deyarli ishlatilmasligi natijasida so'z yo'qolib boradi. Masalan, *rizo, manzur* so'zlari

AHL[a.- أهل xalq, aholi; loyiq] 1) Ma'lum bir qarash (nuqtai nazar), din va sh. k.ga mansub kishilar, odamlar. Islom ahli. Istiqomat qiluvchi, yashovchi kishilar; aholi. Shahar ahli. Qishloq ahli.

AHOLI [– “ahl” أهل] so'zining ko'pligi Ma'lum bir hudud, viloyat, mamlakat va sh. k.da istiqomat qiluvchi odamlar. Mahalliy aholi. Shahar aholisi. Aholini ro'yxatga olish. Zarafshon vohasida 4 millionga yaqin aholi yashaydi. “Fan va turmush”.

Bu so'zlar jamoa semasi asosida birlashgan. Ahl so'zi *ustoz ahli, shoir ahli* tarzida tarzda badiiy uslubda ko'p ishlatiladi.

AJIB[a.- جيب -ajoyib, qiziq] Hayron qolarli, hayratga solib, qiziqish uygʻotadigan, gʻalati. Ajib manzara. Favvorachalardan oftob nurida kumushdai tovlanib taralayotgan suv zarrachalari atrofga ajib bir tarovat baxsh etardi. Gazetadan.

AJOYIB[a.- جايب -ajib narsalar) 1) Juda ham yaxshi, taʼrifga sigʻmaydigan. Ajoyib manzara. Ajoyib sanʼatkor. n Uzoq hishloqda juda sodda turmush kechirishga oʻrgangan bu bechoralar mana endi ajoyib shaharga kelib qoldilar. P. Tursun,

AJAB[– a. يتعجب qiziq, taajjub] 1) Ajablanarli, hayron qolarli. Ajab savdolar. m Ajab Hirot ekan! Halvofurushi ham shoir. Oybek, Navoiy. 2. (Yakka holda) Ajablanishni bildiradi; taajjub, qiziq. Bir necha qadam bosib, orqasida qolgan darvozaga qaradida, bu yerda goʻzal qiz Oyposhsha yashaganini esladi. Ajab, — dedi Elmurod. P. Tursun, Oʻqituvchi.

Bu soʻzlar ajoyib semasi asosida birlashgan. Ajab soʻzi modal soʻz sifatida ham ishlatiladi.

ROZI-RIZOLIK[a. ادضاء -داضى] - Oʻlim yoki vidolashish oldidan bir-biridan rozilik soʻrash. bobo kampiri bilan rozi-rizolik tilashish payti kelganini tushundi va aʼzoyi badani birdan boʻshashib ketdi. H. Gʻulom, Toshkentliklar.

Arab tilidan kirib kelgan soʻzni tahlil qiladigan boʻlsak, juft soʻz tarkibidagi rizolik soʻzi kamunum soʻz hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytadigan boʻlsak, boshqa tillar qatori arab tilidagi soʻzlar, qoʻshimchalar ham tilimizning anchagina qismini tashkil qiladi. Agar tafakkur qilsak, arab tilini nihoyatda mukammal til ekanligiga guvoh boʻlamiz. Sababi asosdosh soʻzlar undosh harflar asosida tuzilgan, hammasining maʼno semasi umumiy. Balki shuning uchun ham Allohning kalomi arab tilidadir. Arab tilidan kirib kelgan soʻzlar oʻzbek tilimiz lugʻatida ham muhim oʻrin tutadi. Ular juft soʻzlar tarkibida, ismlarimizda, diniy eʼtiqodimizga oid atama, iboralarimizda mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1946. – 143 с.
- 2.Казакбаева Г.А. Арабизмы в узбекском языке в прикладном и теоретическом аспектах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Москва: 2012. – С. 6
- 3.Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент: 1966. – 59 с.
- 4.Нишонов А.Х. Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов в языке А.Навои: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент: 1990. –19 с.
- 5.Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, статистические и тематические исследования): Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент: 1989. –38 с.

6.Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои: Дисс. ...
канд. филол. наук. – Ташкент: 1980. –180 с.